

TIL O‘ZGARISHI VA XXI ASR ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Begjanova Zuhro Qudratovna,

*Samarqand davlat chet tillari instituti, Ingliz filologiyasi va
tarjimashunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi*

Pardayeva Aziza Rahmatilloevna,

Samarqand davlat chet tillari instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XXI asrda til o‘zgarishining asosiy omillari va zamonaviy tendensiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tilning jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqligi, uning doimiy ravishda yangilanib boruvchi dinamik tizim ekani asoslab beriladi. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida til tarkibida yuzaga kelayotgan leksik, fonetik va uslubiy o‘zgarishlar yoritiladi. Shuningdek, bilingvizm, yoshlar tili, sleng birliklar va sun‘iy intellekt texnologiyalarining til me‘yorlariga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek tilining zamonaviy kommunikativ makonda rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rsatilib, tilni asrash va uni zamon talablariga mos holda rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Til o‘zgarishi, zamonaviy tendensiyalar, globallashuv, raqamli kommunikatsiya, internet tili, bilingvizm, yoshlar tili, sleng, sun‘iy intellekt, o‘zbek tili.*

Til — insoniyatning eng qadimiy, murakkab va ijtimoiy hodisalaridan biridir. U nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyat, tarix va milliy o‘zlikning asosiy ko‘zgusi hisoblanadi. Jamiyat rivojlangani sayin til ham yangilanadi, boyiydi va moslashadi. XXI asr texnologiyalari, internet va global integratsiya jarayonlari tilning o‘zgarish sur’atini sezilarli darajada oshirdi. Bugungi kunda til milliy hudud bilan cheklanmay, global axborot maydonida, raqamli kommunikatsiya va texnologik jarayonlar ta’sirida shakllanmoqda. Bu maqolada til o‘zgarishi sabablari, zamonaviy tendensiyalar, texnologiyalar ta’siri, globallashuv, yoshlar tili va o‘zbek tilining bugungi rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tilning kelajakda rivojlanishi bo‘yicha taxminlar keltiriladi. Dastlab til o‘zgarishining tabiiy sabablarini ko‘rib chiqsak. Bunda til o‘zgarishi tasodifiy emas, balki ichki va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan tabiiy jarayondir. Jamiyatda paydo bo‘layotgan har bir yangilik yanginishlarni talab qiladi. Jamiyat doimiy o‘zgarishda bo‘lganidek, til ham statik emas. Insoniyat hayotida yangi g‘oyalar va texnologiyalar paydo bo‘lishi bilan ularni ifodalash uchun til moslashadi va yangi atamalar, yangi so‘zlar va

ma'nolarni olib keladi. Yangi kirib kelayotgantushunchalarni aniq nomlash muloqotni samaraliroq qiladi. Agar bitta tushuncha uchun qabul qilingan atama bo'lmasa, uni tushuntirish qiyinlashadi, bu esa noaniqlikka yoki noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki jamiyatning madaniyati va qadriyatlarini ham aks ettiradi. Yangi so'zlar jamiyatning qaysi yo'nalishda rivojlanayotgani, uning e'tibor markazida nima turgani haqida ma'lumot beradi. Misol tariqasida yangi kasiblardan: IT mutaxassisi, dizayner, kontent-menejer bular hozirgi kunda kirib kelgan yangi so'zlar bo'lib biz bu so'zlarni o'rniga boshqa so'zlar bilan tarif bera olmaymiz. Bilamizki har bir yangi hodisa tilni boyitadi va foydalanuvchilar tilni doimo yangilab borishga majbur qiladi. Turli hududlarda, avlodlar va kasbiy guruhlar o'rtasidagi muloqot yangi so'zlar va talaffuzlarni keltirib chiqaradi. Misol uchun, yoshlar orasida tez tarqaladigan so'zlar ko'pincha global madaniyat va texnologiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Chet elliklar bilan global aloqalar kuchaygani sari o'zlashtirilgan so'zlar ko'payadi. Masalan: marketing, platforma, trend va blogger so'zlari halqimiz orasida kundalik so'zlar qatoriga kelib qo'shildi. Bu jarayon tilimizni boyitdi, ammo ona tilining o'ziga xosligini saqlash mas'uliyatini ham oshirdi. Buning natijasida ona tilimizda fonetik ya'ni so'zlarning soddalashish jarayoni yuz bermoqda. Hozirgi kunda ko'p ishlatilib kelinayotgan "kelayapman" so'zi "kelyapman" so'ziga aylanib qoldi. Bu jarayonlar tilning moslashuvchanligini ko'rsatadi va uni tirik tizim sifatida saqlaydi.

Bugungi XXI asrda globalizatsiya tillarning yaqinlashuviga sabab bo'ldi. Globalizatsiya jarayonida ingliz tili dunyodagi yetakchi kommunikativ vositaga aylangan bo'lib, bu holat global til sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlamoqda [Kristal.D , Kembrij: Cambridge University Press, 2003]. Bu til haqida nazariy tadqiqotlar hozirgi kunda global kommunikatsiya tili sifatida keng qo'llanilmoqda. O'zbek tilidagi inglizcha birliklar keskin oshdi va ba'zi so'zlar uchun o'zbekcha muqobillar mavjud bo'lsa-da, ommaviy qo'llanilishi davom etmoqda. Hozirgi kunda bilingvizm tushunchasi ko'plab yoshlar orasida keng tarqalmoqda va bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq tilda muloqot qilish imkonini beradi. Bilingvizm tushunchasi dunyoqarashni kengaytiradi, ilmiy adabiyotga kirishni osonlashtiradi va kasbiy imkoniyatlarni oshiradi. Blingvizm hodisasi uzoq vaqtdan beri tilshunoslar va psixologlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Ilgari ikki tilni bilish bo'lingan kognitiv rivojlanishiga saalbiy ta'sir qilishi mumkin, degan noto'g'ri qarashlar mavjud edi. Biroq, so'nggi o'n yilliklardagi chuqur ilmiy tadqiqotlar bu taxminlarni mutlaqo rad etdi. Xususan, [Ellen Bialystok] boshchiligidagi tadqiqotchilarning ishlari shuni ko'rsatadiki, ikki tilli shaxslar monolingvallarga (bir tilda so'zlashuvchilarga) nisbatan "ijrochi funksiyalari" (diqqatni jamlash, vazifalarni o'zgartirish va chalg'ituvchi omillarni e'tiborsiz qoldirish) bo'yicha sezilarli ustunlikka ega bo'lishadi. Ushbu "bilingval afzallik" nafaqat bolalik

davrida, balki keksalikda ham kuzatilib, Altsgeymer kasalligi kabi neyrondegenerativ kasalliklarning boshlanishini kechiktirishi mumkin. XXI asrda eng sezilarli o‘zgarish manbai – texnologiya bo‘lib global rivojlanishning yetakchi omilliga aylangan, inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib bermoqda. Raqamlashtirish jarayoni jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab beradi [Toffler, 2001]. Zamonaviy tilshunoslikda texnologiyaning tilga ta’siri alohida, mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida o‘rganilmoqda. XXI asr axborot texnologiyalari va Raqamli kommunikatsiyalar sur’ati sezilarli darajada oshdi. Texnologiya tili deganga, birinchi navbatda, inson (tabiiy kundalik hayotda foydalanadigan) tili va komputer tili o‘rtasidagi o‘zaro aloqa tushuniladi. Komputer lingvistikasi inson tilini mashinaga tushunarli qilib ishlatish usullarini o‘rganadi. Bu sohadagi tadqiqotlar mashina tarjimai, nutqni aniqlash va sintez qilish texnologiyalari rivojiga asos bo‘ldi. Xususan, AI va ChatGPT kabi generative modellar tilining o‘zgarishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular nafaqat yangi matnlar yaratmoqda, balki insonlarning muloqot uslubiga ham taqlid qilib, til me’yorlariga ta’sir o‘tkazmoqda. Internet va ijtimoiy ta’omqlar orqali yangi so‘zlar, qisqartmalar (masalan, ”lol”, ”imho”, ”selfie”) va muloqot uslublari tez shakllanib, umumiy tilga kirib bormoqda. Bu hodisa tilshunoslar tomonidan faol o‘rganilmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar global tarmoqdagi dominant tillarning (ayniqsa, ingliz tilining) ustunligi kichikroq tillarning yo‘qolib kentish xavfini oshirish mumkiligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar milliy tillarni saqlash va rivojlantirish uchun ham vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Texnologiya natijasida yoshlar tili ham paydo bo‘ldi. Yoshlar tili tilshunoslikda alohida ijtimoiy dialekt sifatida o‘rganilmoqda. Bu o‘ziga xos kommunikativ amaliyotlar bo‘lib, asosan muayyan yosh guruhning o‘ziga xosligini, ”o‘zlik” hissini ifodalashga xizmat qiladi. Tilning jamiyatdagi o‘rnini o‘rgangan olim [Mahmudov N.M] ta’kidlaganidek, tilning taraqqiyoti bevosita ijtimoiy omillarga bog‘liqdir. Yoshlar tili o‘ta efemer (tez o‘tkinchi) xususiyatga ega. Bugungi kunda mashhur bo‘lgan so‘z ertaga eskirishi mumkin. Bu ularning yangilikka intilishi va ijodiy potentsialini aks ettiradi. leng so‘zlari turli manbalardan kirib keladi. Ayniqsa, Raqamli muloqotda yoshlar slengning shakllanishi so‘nggi yillarda dolzarb mavzu bo‘lib, bu borada [G.Ro‘zmetova] tomonidan maxsus dissertatsiya tadqiqotlari olib borilgan. Tilshunoslar slengni adabiy tilga xavf deb emas, balki tilning boyishi uchun potentsial manba sifatida ko‘rishadi. Vaqt o‘tishi bilan ba’zi sleng so‘zlar umumiy iste’molga kirib, lug’atlardan joy olishi mumkin. Til va jamiyat munosabatlarini o‘rgangan [M.Toshaliyev] o‘zining sotsiologvistik tadqiqotlarida bu munosabatlarni keng yoritib bergan.

Xulosa qilib aytganda, til o‘zgarishi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganrakkab va ko‘p qirral jarayondir. XXI Asda globalizatsiya, axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi tilning shakllanishi, funksionla

imkoniyatlari va qo'llanish doirasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Til endilikda nafaqat an'anviy muloqot vositasi, balki raqamli muhitda tezkor va qisqa kommunikatsiyani ta'minlovchi dinamik tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada tahlil qilinganidek, yangi atamalar, sleng birliklar, qisqartmalar va chet tillardan kirib kelayotgan leksik birliklar tilning boyishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bilingvizmning keng tarqalishi zamonaviy insonning intellectual va kasbiy salohiyatini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va raqamli kommunikatsiya vositalari tilning rivojlanish sur'atini tezlashtirib, yangi lingvistik hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Biroq til o'zgarishi jarayoni da milliy tilning o'ziga xosligi, adabiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini asrash muhim vazifa bo'lib qolmoqda. O'zbek tilining zamonaviy tendensiyalariga moslashuvi, terminologik boyishi va raqamli mako da faol qo'llanilishi uning kelajakda yanada rivojlangan va raqobatbardosh tilga aylanishidan dalolat beradi. Shunday ekan, til o'zgarishini inkor etish emas, balki uni ilmiy asosda boshqarish, madaniyatini oshirish va yosh avlodg ongida ona tiliga hurmat tuyg'usini mustahkamlash muhim ahamiyati kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kristal, D. Ingliz tili global til sifatida. – Kembrij: Cambridge University Press, 2003.
2. Toffler, A. Uchinchi to'lqin. – Nyu-York: Bantam Books, 2001. (XXI asr texnologiyalari jamiyatga qanday ta'sir qilishi haqida klassik asar).
3. Mahmudov, N.M. (2007). Tilning taraqqiyoti va ijtimoiy omillar. O'zbek tili VA adabiyoti jurnali, 3-son, 34-40 betlar.
4. Ro'zmetova, G. (2021). Raqamli muloqotda yoshlar slengining shakllanishi. Filologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.
5. Toshaliyev, M. (2019). Til va jamiyat: sotsiolingvistik tadqiqotlar. Samarqand: SamDU nashri.